

TA'LIM-TARBIYA TIZIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA ULARNI TA'LIM JARAYONIGA JORIY ETISH USULLARI

Sobirov Dilshod Solayevich

katta o'qituvchi, Xorazm viloyati PYMO'MM

Zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga tadbiq etish, iqtisodiy samara berishi bilan bir qatorda, o'quv jarayonida yangi o'qitish uslublarini qo'llashga keng imkoniyatlar ochadi. Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llash asosan, axborot texnologiyalarining pedagogik-dasturiy vositalari yaratilishi bilan bog'liq.

O'quv materiallarini obrazlar ko'rinishida taqdim etish metodikasi yordamida tinglovchilar bilim olish jarayonining hamma tarkibiy qismlariga u yoki bu tarzda ta'sir etish mumkin. Ayniqsa, bu o'rinda tinglovchilarni o'quv materiallarini qabul qilish, ma'nosini anglash, esda qoldirish, ularni takrorlash kabi jihatlarini ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, bu uslub tinglovchilarning o'qishga nisbatan emotsional yondashishini rivojlantiradi va ularni ko'p vaqt sarf qilmasdan o'quv materiallarini o'zlashtirishga erishishni ta'minlaydi. Bu sifatlarni ana'naviy o'qitish va yangi metodika bilan taqqoslab ko'ramiz. Ana'naviy o'qitish metodikasida o'quv materiallari asosan matn va formulalar ko'rinishida berilib, o'quv materiallarini namoyish qilish imkoniyati deyarli mavjud emas. Bunday ko'rinishda berilayotgan o'quv materiallarini tinglovchi tomonidan o'zlashtirish asosan ketma-ket ravishda amalga oshiriladi, shu sababli ularni esda qoldirish va o'zlashtirish juda sust bo'ladi. Yangi o'qitish metodikasida tinglovchilarga berilayotgan materiallarni qayta kodlashtirish va o'zlarining modelini yaratish masalalari yuklanmaydi. O'quv materiallarini obrazlar ko'rinishida taqdim etish uchun ularni axborot texnologiyalaridan foydalanib, elektron-didaktika asosida elektron qo'llanma, darslik, kurs va virtual stend ko'rinishida yaratish yuqorida qo'yilgan masalalarni ijobiy xal etishga olib keladi.

Xorij va vatanimizdagi axborot texnologiyalarning pedagogik asoslari buyicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, axborot texnologiyalar elektron-didaktik (animatsiya) ko'rinishidagi funksiyalarga asoslanib ular:

- qulay ko'rinishda bo'lgan o'quv materiallarini tushunib yetishga, berilgan ma'lumotlar haqida tushuncha va tasavvur hosil qiladi;

- ko'p ma'lumotlarni olish, ya'ni ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri olish imkoniyati yaratadi;

- o'quv jarayonini yengillashtirishga, ya'ni kam vaqt sarf qilib ko'p ma'lumotlarga ega bo'lishga erishadi;

- moslashtiruvchanligiga, ya'ni o'quv jarayonini tashkil qilish uchun qulay bo'lgan animatsiyalarni ko'rsatish, mustaqil ishlash uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalanish va guruh-guruh bo'lib bilim olishni tashkillashtirish masalalarining echimini

topishga qaratilganligini va ularda ikki turdagi, ya'ni informatsion va pedagogik yondashishlarni ko'rishdan iboratdir.

Keyingi yillarda multimediya hujjatlarini yaratishga oid juda ham ko'plab dasturiy ta'minotlar ishlab chiqilgan. Ulardan biri AutoPlay dasturidir.

Istalgan fayl yoki fayllar to'plamini bitta muhitga birlashtirish, qolaversa, CD yoki DVD disklar uchun Autorun-menyusi hosil qilishda AutoPlay Media Studio eng kuchli vizual paket hisoblanadi.

Multimedia texnologiyalariga asoslangan amaliy dasturlarni yaratish uchun AutoPlay Media Studio dasturidan foydalanish foydalanuvchilar uchun juda oson va qulay interfeysni taqdim etadi.

AutoPlay Media Studio bilan ishlashda deyarli dasturlash ishlari talab qilinmaydi. Foydalanuvchi faqat turli dizaynli dasturiy muhitni tanlash uchun bir nechta tayyor shakllardagi loyiha shablonlaridan foydalanishi mumkin.

Bunda amaliy dastur muhitini dizaynga boy holatga tashkil etish uchun AutoPlay dasturiy vositasi tarkibida tayyor ob'ektlar mavjud bo'lib, ular tarkibiga buyruq tugmasi, tovush kuchaytirgichi, fayllarni printerdan bosmaga chiqarishni ta'minlovchi, Web-saytlarni ochuvchi va ularga murojaatni amalga oshirib beruvchi qator funksional ob'ektlarni kiritish mumkin.

Amaliy dastur uchun grafik qobiqlarni yaratish, uni avtomatik ishga tushirish uchun AutoPlay Media Studio barcha kerakli fayllarni o'zi yaratadi. Foydalanuvchilar zimmasiga esa faqat qattiq disk va kompakt diskarni yozish uchun tayyor loyihalarni shakllantirish vazifasi qoladi.

Tayyor loyiha bunda .exe kengaytmali fayl sifatida o'zi ochiluvchi arxiv ko'rinishda yoki qattiq diskdagi alohida papkada shakllantirilishi mumkin. Bundan tashqari, dasturga matnni orfografik tekshirish imkoniyati ham kiritilgan. Dasturning bu xossasi uning Label, Paragraph va Buttan kabi ob'ektlari bilan birga ishlaydi. Agar dastur kompyuterga to'liq versiya bilan o'rnatilgan bo'lsa, matnni orfografik tekshirish uchun uning kutubxonasida juda katta hajmdagi lug'atlar bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalari tinglovchilarning mustaqillik bilim olishiga yordam beradi. Asosiysi, u tinglovchilarning kommunikativ ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga va ular o'rtasidagi muloqotni o'rnatilishiga yordam beradi, kompyuter bilan ishlashga o'rgatadi. Xullas dars jarayonini axborot texnologiyalari orqali tashkil etish o'ziga xos sifat va samaradorlikni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xodjiyev M.T., Olimov Q.T. Elektron darslikni yaratish texnologiyasi va sifatini baholash metodikasi. -T.: Fan, 2005.
2. Begimkulov U.Sh., Djurayev R.X., Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot.- Toshkent: – 2017.

ТЕРМИНЛАРНИНГ ФАОЛЛАШУВИДА НУТҚ УСЛУБЛАРИНИНГ ЎРНИ

Ҳашимова Хуршида Джўрахановна

*Наманган давлат университети
мустақил изланувчиси Наманган, Ўзбекистон*

Аннотация: *Ўзбек адабий тилида ҳар бир услуб ўзига хос хусусиятлари билан муштараклик касб этса-да, уларнинг барчасида терминларнинг ўрни яққол сезилади. Барча услубларда ҳар бир соҳанинг терминологик тизими фаол иштирок этади. Шу сабабли мақолада ўзбек тили терминологик қатламининг услубларда ифодаланиш хусусиятлари ёритилган.*

Таянч сўзлар: *термин, услуб, расмий услуб, бадиий услуб, илмий нутқ, соҳа терминлари, стиль.*

Аннотация: *Хотя узбекская терминологическая лексика имеет много общего с другими особенностями лексики, она характеризуется отсутствием семантических изменений, определенной стабильностью взаимоотношений между единицами системы. Этот пласт привлекает внимание своей количественной зависимостью от внешних и внутренних факторов. Таким образом, в статье описывается терминологический пласт узбекского языка в некоторых источниках.*

Ключевые слова: *лексика, термин, терминология, терминологический пласт, отраслевые термины, лексема.*

Ҳозирги ўзбек адабий тилида ҳар бир услубнинг ўзига хос хусусиятлари алоҳида таъкидланса ҳам барчасида терминларнинг ўрни яққол сезилади.

Стиль (услуб) сўзи ҳозирда кенг ва тор маъноларда ишлатилмоқда. Кенг маънода «услуб», «усул», «йўл» сўзларининг маъносида: иш услуби, ўйин услуби, қадимги муҳташам бинолар услуби каби ишлатилса, тор маънода тилшунослик, адабиётшунослик ва санъатшунослик фанларининг бир соҳаси сифатида — терминологик маънода қўлланаётир [1:5].

Жумладан, расмий-идоравий услубда ҳар бир соҳанинг терминологик тизими фаол иштирок этади.

М.Мирҳамидов, С.Ҳасановларнинг “Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи”, С.Каримов, Х.Маматов, И.Бўриевларнинг “Юристининг нутқ маданияти”, Мирҳамидов, Н.Норпўлатов, С.Ҳасановларнинг “Юристининг нутқ маданияти” ўқув қўлланмаларида М.Абдусаломов ва Ш.Рўзиназаровларнинг “Русча–ўзбекча суд-ҳуқуқий атама ва иборалар луғати” юридик нутқ, ҳуқуқий терминларнинг этимологик тавсифи ҳақида фикр юритилади.

Суд нутқи борасида тадқиқот олиб борган Қ.Мўминов мазкур соҳада терминологиянинг шаклланиши узоқ даврларга бориб тақалишини қайд этади. “Суд нутқи лексикасини, асосан, адабий тилнинг расмий услубига оид сўзлар ташкил